MUNAVVAR QORI ABUDRASHIDXONOV



Abudrashidxonov Munavvar qori (1878 - 1931) - o‘zbek davlat va jamoat arbobi, o‘zbek milliy maktabining asoschisi. Toshkent shahar Shayx Hovandi Tahur daha, Darxon mahallasida mudarris Abdurashid Olimxon va maktabdor Xosiyat otin oilasida dunyoga kelgan. Dastlab Yunusxon, Eshonqulidodxoh madrasalarida va 1885-1890 yillarda Buxorodagi madrasalardan birida tahsil olgan. Bog‘chasaroyda nashr etilgan “Tarjimon”, ozarbayjon va tatar nashrlari ta’sirida dunyoqarashi shakllangan. Toshkentdagi faoliyatini Mirzaabdullaboy masjidida imomlik va muallimlikdan boshlagan. Xususiy o‘qituvchi yollab rus tilini o‘rgangan. Arab, fors, usmonli turk tillarida erkin so‘zlashgan. 1900-1901 yillarda birinchi bo‘lib yangi usuldagi maktab ochgan va uning to‘liq programmasini ishlab chiqdi. 1903-1907 yillarda “Adibi avval” va “Adib us-soniy” darsliklarini chop etdi. 1906 yil – “O‘rta Aziyaning umrguzarligi. Taraqqiy”, “Taraqqiy” gazetalarida muharrir. 1906 yilda -”Xurshid” gazetasini tashkil etdi. 1908 yilda “Osiyo” va “Shuhrat” gazetalarida muharrir bo‘lgan. 1909 yilda “Jamiyati imdodiya” muassisi va rais o‘rinbosari. Davlatni muxtor boshqaruv masalasini o‘rganish uchun 1911 yilda Finlandiyaga sayohat qilgan. 1913 yilda “Turon” uyushmasi ta’sischisi, uning nizomini ishlashda ishtirok etgan. 1914 yilda “Nashriyot” firmasi va “Turkiston kutubxonasi”, “Umid” nashriyotlarining tashkilotchisi. “Sadoyi Turkiston” gazetasining muharriri, “Turon” kutubxona - qiroatxonasining tashkilotchisi. 1915 yildan “Al-Isloh” jurnalining g‘oyaviy rahbari, Turkiston mardikorga olish qo‘mitasi raisi o‘rinbosari, 1916-1917 yillar “Sho‘royi islom” tashkiloti tashkilotchisi va rais muovuni, 1917 yil Toshkent shahar Dumasi a’zosi, “Najot” va “Kengash” gazetalarining mas’ul muharriri, o‘z uyida “Ravnaq” kutubxonasini tashkil etgan. 1918 yil Turkiston maorif komissarligi turk shu’basi mudiri va ish yurituvchisi, Toshkent eski shahar maorif inspektori, “Xalq dorulfununi” sho‘rosi raisi, 1919 yildan TurkMIK a’zosi. 1920 yildan Maorif ko‘missarligi Vaqf bo‘limi boshlig‘i, rais o‘rinbosari. 1920 yil sentabrda Bokuda o‘tgan Sharq xalqlari s’ezdi delegati, prezidium a’zosi, “Sharq xalqlari hamkorligi va targ‘ibot kengashi” a’zosi.

Munavvar qori Abudrashidxonov 1921 yil 30 martdan 3 dekabrgacha Sadriddinxon ishi bo‘yicha hibs etilib, xalq namoyishi tufayli ozodlikka chiqarilgan. 1922 yildan Toshkent shahar Ijtimoiy tarbiya bo‘limi mudiri, “Ko‘mak” uyushmasi raisi muovini, Akademmarkaz raisi, Til-imlo qurultoyi delegati. 1923 yil Maorif ko‘missarligi kollegiyasi a’zosi, “Nashri maorif” jamiyati muassisi, rais muovini. 1924 yil Ayollar maorif institutida muallim, 1925-1926 yillar hamkorlikda “O‘zbekcha til saboqligi” kitobini yozgan. 1927-1928 yillar O‘zkomstarsis qo‘mitasining Samarqand muzeyi xodimi, shu

qo‘mitaning Toshkent-Farg‘ona bo‘limi mas’ul kotibi bo‘lgan. Munavvar qori Abudrashidxonov 1928-1929 yillar amalda ishsiz bo‘lgan. 1929 yil 6 noyabr kuni GPU tomonidan qamoqqa olinib, 1931 yil 23 aprelda Moskvada otilgan.